



BUYRUQ

2025-yil 4-iyun

TOSHKENT

256-H-son

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJda xaridlar tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-684-son, 2024-yil 27-noyabrdagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi O‘RQ-1005-son Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 31-dekabrdagi “Temir yo‘l sohasida transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish to‘g‘risida”gi F-70-son farmoyishi, 2018-yil 27-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3953-son, 2021-yil 2-iyuldagi “Davlat xaridlari shaffofligini ta‘minlash va samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5171-son, 2022-yil 25-iyuldagi “Investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarning loyihaoldi, davlat xaridiga doir tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari va texnik topshiriqlar hamda shartnomalarni ekspertizadan o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-332-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-avgustdagi “Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4812-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-yanvardagi “Elektrotexnika sanoatining ishlab chiqarish va eksport salohiyatini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risiga”gi PQ-15-son qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 276-son qarori hamda xarid faoliyatiga doir boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar ijrosini ta‘minlash, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJda (keyingi o‘rinlarda–Jamiyat) xarid faoliyatini amalga oshirish tartibini o‘rnatishga asoslangan xarid siyosatini belgilash maqsadida, **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 31-dekabrdagi “Temir yo‘l sohasida transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish to‘g‘risida”gi F-70-son farmoyishiga muvofiq xaridlar tizimini takomillashtirish yuzasidan berilgan topshiriqlar ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur buyruqning:

1-ilovasiga muvofiq – “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ ehtiyojlari uchun tovar (ish, xizmat)larni xarid qilish bo‘yicha Xarid komissiyasi tarkibi;

2-ilovasiga muvofiq – jamiyat ehtiyojlari uchun tovar (ish, xizmat)larni xarid qilish bo‘yicha shakllantirilgan xarid komissiyasi va uning texnik baholash guruhi nizomi;

3-ilovasiga muvofiq – “Jamiyat ehtiyojlari uchun tovar (ish, xizmat)larni xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi nizomi tasdiqlansin.

3. Belgilansinki:

mazkur buyruqning 2-bandi bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ ehtiyojlari uchun tovar (ish, xizmat)larni xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish nizomi faqatgina Jamiyatning yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan bo‘linmalariga taalluqlidir;

Jamiyatning yuridik shaxs maqomiga ega korxonalari o‘z xarid faoliyatlarini davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonuni va qonunosti hujjatlarida belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

4. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tarkibidagi yuridik maqomiga ega bo‘lgan tashkilot, muassasa, korxonalar hamda “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tarkibidagi aksiyadorlik jamiyatlari rahbarlari:

bir oy muddatda o‘rnatilgan tartibda Xarid komissiyalarining tarkibini hamda Qonunga muvofiq tovar (ish, xizmat)larni xarid qilish bo‘yicha tartib-taomillarini o‘tkazish nizomini ishlab chiqilsin va tashkilotning birinchi rahbari tomonidan tasdiqlansin;

har yili keyingi yilda o‘z ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan tovar (ish, xizmat)larni mazkur buyruqning 4, 5-ilovalarga muvofiq xaridlarning yillik reja-jadvalini shakllantirish va tasdiqlash hamda 6-ilovaga muvofiq import qilish rejalashtirilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro‘yxatlarini xaridlarning maqsadga muvofiqligi nuqtai nazaridan kuzatuv kengashi majlisida ko‘rib chiqishga kiritilishi, shuningdek, ushbu xaridlar yillik reja-jadvalini maxsus axborot portalga amaldagi yilning 25-dekabr sanasiga qadar joylashtirilishi ta‘minlansin;

5. “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tgan (ro‘yxat raqami 3599-son 17.01.2025-y.) “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 6-dekabrda “Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 200-son buyrug‘i ma‘lumot va ishda qo‘llash uchun qabul qilinsin.

6. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tarkibidagi barcha korxonalar, muassasa, markaz, aksiyadorlik va mas‘uliyati cheklangan jamiyatlari tomonidan xarid qilish tartib-taomillari yakunlari bo‘yicha belgilangan shartlarni, majburiyatlarni bajarmagan yoki boshqacha usulda bo‘yin tovlagan yetkazib beruvchilarning “qora ro‘yxati”ni yuritish yo‘lga qo‘yilsin;

Mazkur buyruqning 7-ilovasiga muvofiq yetkazib beruvchilarning yagona “qora ro‘yxat”ini yuritish bo‘yicha reglament tasdiqlansin.

7. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning boshqarma, korxonalar (tashkilot, muassasa) hamda uning tarkibiy bo‘linmalarining xarid komissiyalari tomonidan eng yaxshi takliflarni tanlash, tender, xadli kelishuv, ikki bosqichli xarid turlarida tavakkalchilikka yo‘naltirilgan yondashuvdan foydalangan holda ta‘minotchilarni ishonchlilik va affillanganlik bo‘yicha tekshirish reglamenti mazkur buyruqning 8-ilovasiga muvofiq tasdiqlansin.

8. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tarkibidagi barcha korxonalar, muassasa, markaz, aksiyadorlik va mas‘uliyati cheklangan jamiyatlari hamda uning tarkibiy bo‘linmalari uchun elektron platformalardagi mavjud shartnomalardan tashqari 9-ilovaga asosan namunaviy shartnoma turlari tasdiqlansin;

Ushbu ilovada ko'rsatilgan shartnomalar namuna hisoblanib, tomonlarning o'zaro kelishuvlariga asosan shartnoma bandlariga o'zgartirish va qo'shilmachalar kiritilishi mumkin.

9. Iqtisodiy strategiya, tahlil va tarif siyosati departamentiga har oyning 3-sanasiga qadar mazkur buyruqning 10 va 11-ilovalariga muvofiq amalga oshirilgan xaridlar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etilishi ta'minlansin;

barcha korxonalarining birinchi rahbarlari hisobotlarni o'z vaqtida, to'liq va to'g'ri taqdim qilinishini nazoratga olsin.

10. Iqtisodiy strategiya, tahlil va tarif siyosati departamenti (Qilichev):

so'rovga asosan har chorakda o'rnatilgan tartibga muvofiq O'zbekiston Respublikasining vakolatli organlariga amalga oshirgan davlat xaridlari to'g'risidagi hisobotlarni taqdim etsin;

har yili 25-dekabrgacha keyingi yil Jamiyat ehtiyojlari uchun tovar (ish, xizmat)larning xarid qilish reja-jadvalini maxsus axborot portalga joylashtirilishini ta'minlasin.

11. Axborot-tahliliy media markazi (Baltabayev) har yilgi jamiyat ehtiyojlari uchun tovar (ish, xizmat)larni xarid qilish reja-jadvali tegishli rasmiy saytga joylashtirilishini ta'minlasin.

12. "O'zbekiston temir yo'llari" AJ tarkibiga kiruvchi aksiyadorlik jamiyatlari, korxonalar va tashkilotlar (muassasa, boshqarmalar, markazlar, direksiyalar, bo'linmalar) rahbarlari:

xaridlarni amalga oshirishda xarajatlarini va tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymatini hisobga olinishi, davlat xaridlari uchun ajratilgan mablag'lardan samarali foydalanilishi, shu jumladan, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) olishdan ko'rilgan naf, ularning sifati va qiymati o'rtasidagi maqbul nisbatni (foydalanish davri xarajatlarini hisobga olgan holda) ta'minlanishi, shuningdek, xaridlarni maqbul muddatlarda o'tkazish imkonini beradigan oqilona va tejamkor usulda amalga oshirilishi nazoratini olib borsin;

xarid qilish uchun talabnoma kelib tushganda xo'jaliklar tegishligi bo'yicha o'z vakolati doirasida talabnomada so'ralgan tovar moddiy boyliklar o'rganib chiqib zarurat mavjud bo'lganda Jamiyat tarkibidagi barcha korxonalaridagi tovar moddiy boyliklarni ko'rib chiqib, ular korxonalarida mavjud bo'lgan taqdirda zarur miqdordagi tovar moddiy boyliklarni zudlik bilan qayta taqsimlash choralarini ko'rsin va buyurtma bergan korxonaga yetkazish, omborlarda so'ralgan tovar moddiy boyliklar mavjud bo'lmagan yoki yetarli bo'lmagan taqdirdagina, buyurtmadagi zarur tovarlar xaridini tegishlilik bo'yicha kelishilgan holda amalga oshirishga ruxsat berilsin;

xarid qilinayotgan tovarlarning butun hayotiy davri davomidagi funksiyaviy va ekspluatatsiyaviy xususiyatlariga doir afzalliklarni hisobga olgan holda, ularni xarid qilish, ulardan foydalanish, ularga texnik xizmat ko'rsatish va ularni utilizatsiya qilish xarajatlarini e'tiborga olsin;

xarid qilinayotgan tovarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymatini bozor narxlariga muvofiqligini baholash uchun ochiq axborot manbalaridagi axborotlardan yoki boshqa ishonchli manbalardan foydalangan holda xarid predmetining narxini o'rgansin;

mablag'lardan samarali foydalanish maqsadida doimiy ehtiyojdagi ayni bir turdagi tovarlarning ulgurji xaridini markazlashgan xarid organi orqali amalga oshirilishi lozimligini inobatga olsin;

tovar-moddiy boyliklar (TMB) xaridlarini tahlil qilib, samarasiz xaridlarni aniqlash va xarajatlarni optimallashtirish, xarid samaradorligini oshirishda 12-ilovada keltirilgan xaridlarni samaradorligini oshirish dastagidan foydalanish tavsiya etiladi;

xarid qilinishi nazarda tutilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni birinchi navbatda mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilish imkoniyatini majburiy tartibda o'rgansin;

har bir amalga oshirilayotgan xaridni "Davlat xaridlari to'g'risidagi" qonun va xaridlar siyosatiga doir boshqa qonun osti hujjatlar talabiga muvofiq bajarilishini nazoratga olsin;

tovar (ish, xizmat)lar xaridi uchun tuzilgan shartnomalarga shaxsan javobgar hisoblanadi.

13. "O'zbekiston temir yo'llari" AJning 2021-yil 23-iyuldagi "O'zbekiston temir yo'llari" AJning joriy ehtiyojlari uchun tovar (ish, xizmat)lar xaridini amalga oshirish tartibini tasdiqlash to'g'risida"gi 755-N-son, 2023-yil 8-sentabrdagi "O'zbekiston temir yo'llari" AJ ehtiyojlari uchun tovar (ish, xizmat)larni xarid qilish bo'yicha Xarid komissiyasining tarkibi"ni tasdiqlash to'g'risida"gi 699-N-son buyruqlari ushbu buyruq imzolangan kundan boshlab o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

14. Mazkur buyruq imzolangan kundan boshlab qonuniy kuchga kiradi.

15. Ushbu buyruq ijrosi nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Boshqaruv raisi



Z.G'. Narzullayev